

## Muhammad Rahimxon II



# Muhammad Rahimxon II

**Feruz**

(1845 yil – Xiva – 1910 yil)

(1864-1910)

Xiva xoni; shoir va bastakor. **Qo'ng'irotlar** sulolasidan. Xiva shahridagi *Arab Muhammadxon madrasasida* tahsil ko'rgan, davlat, huquq ilmini zamonasining mashhur mudarrisi, shoir va olim *Doiy*, *Yusufxo'ja oxun* va boshqalardan o'rgangan. *Ogahiy* Muhammad Rahimxon II – **Feruzga** ustozlik qilgan, unga she'riyat sirlarini o'rgatgan, tarix, tarjima ilmidan saboq bergan. Otasi *Sayid Muhammadxon* vafotidan so'ng (1864) Xiva taxtiga o'tirgan.

1873 yil Xiva xonligiga *K.P.fon Kaufman* boshchiligidagi Rossiya qo'shini hujum qilib, xonlikning asosiy shaharlari va poytaxtni bosib olgan. *Gandimiyon shartnomasi* (1873 yil 12-avgust)ga ko'ra, Xiva xonligi podsho Rossiyasiga qaram bo'lib qolgan. Feruz ana shunday murakkab sharoitda yarim asrga yaqin muddat davomida Xiva xonligini boshqargan. Feruz saroyga adabiyot va san'at arboblarni to'plagan. *Ogahiy*, *Komil*, *Tabibiy* va boshqalar ta'sirida o'zi ham Feruz (baxtli, g'olib) taxallusi bilan she'rlar yozgan. U qoraqolpoqlarni boshqarish uchun "**Qoraqolpoq ulus**"ni shakllantirgan. Feruz kitobat ishlariga katta ahamiyat bergan: devon tuzish, tarix yozish, tarjima ishlarini rivojlantirgan. Xorazmda tarjima maktabi yaratgan. Fors va arab adabiyotining eng nodir tarixiy, adabiy, ilmiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildirgan.

Uning hukmronligi davrida *Ogahiy* va *Bayoniylar* tomonidan Xorazm tarixiga oid asarlar

yozilgan. *Komil Xorazmiy* mumtoz maqomlar uchun nota yozuvini ixtiro qilgan. Xivada bosmaxona (toshbosma) tashkil ettirgan. Unda Xorazm shoirlari haqidagi “*Majmuat ush-shuaro*” tazkirasi, *Alisher Navoiy* asarlari, Xorazm shoirlari devonlari nashr qilingan. Feruz Hindiston, Arabiston, Eron, Turkiya savdogarlari orqali Xorazmga chet ellardan noyob kitoblar keltirtirgan va ularni ko'p nusxalarda ko'chirtirgan, tarix va adabiyotga oid kitoblardan iborat boy kutubxona yaratgan. Feruz me'morlik, naqqoshlik, xattotlik kabi san'at turlarini ham rivojlantirgan. Bu davrda fotografiya va kino san'ati vujudga kelgan, obodonchilik ishlari amalga oshirilgan.

Feruz 1871 yil Ko'hna Ark qarshisida o'z nomi bilan ataluvchi 2 qavatli madrasa qurdirgan (*Muhammad Rahimxon madrasasi*). Feruzning bevosita rahbarligi va tashabbusi bilan 30 dan ortiq madrasa, masjid, minora, xonaqolar qad rostlagan. Feruz yerlarni suv bilan ta'minlash, bog'-rog'lar barpo etish ishiga ham alohida ahamiyat bergan. Uning buyrug'iga muvofiq, Qo'ng'iro't tumani sarhadida katta ariq bunyod etilgan. Hozirda ushbu ariq “**Xon arig'i**” deb ataladi.

1874 yili Feruz Rossiyadan 2 ta litografiya (kitob bosuvchi) mashinani sotib olib, Turkistonda ilk marotaba kitob chop etishni yo'lga qo'ygan. Uning topshirig'iga ko'ra bir qator tarixiy va sharqona didaktik asarlarni o'zbek tiliga o'girish bo'yicha katta ishlarni amalgam oshirgan. Masalan, “*Tabariy tarixi*” (12 jildda), “*Shayboniynoma*”, “*Zafarnoma*”, “*Eron tarixi*”, “*To'tinoma*” (to'ti tilidan ertak tarzida hikoya qilingan nasihatlar kitobi) “*Maorifnoma*” kabilar. Muhammad Rahimxonning yozgi qarorgohi Tozabog'da nodir kitoblar saqlanib Rossiyaning sharqshunos olimlarining etiborini tortgan va ular bu yerga ana shu nodir kitoblarni o'rganish, tarjima qilish va ko'chirish uchun atayin kelishgan. Muhammad Rahim Bohodirxon butun O'rta Sharqda tengi topilmas boy kutubxonaga asos solgan. Uning topshirig'iga ko'ra yozilgan mamlakat tarixi Buxoro va Qo'qonda bitirgan huddi shunday tarixlardan musoffoligi va ishonarliligi bilan o'ta darajada yuqori saviyada edi.

Feruz mumtoz she'riyatning an'anaviy janrlarida lirik she'rlar yaratgan. She'rlari, asosan, ishq-muhabbat mavzuida. Inson va hayot, sevgi va sadoqat Feruz ijodining g'oyaviy asosini tashkil qiladi. Ular ohangdorligi, tasviriy-ifodaviy bo'yoqlarga boyligi va shaklan rang-barangligi bilan ajralib turadi. Uning ko'pchilik g'azallari o'z zamonasida sozandalar tomonidan kuyga solib kuylanib kelingan. She'rlariga “**Devoni Feruz**” nomi bilan tartib bergan (1879). Bu devon *Muhammad Sharif* tomonidan qayta ko'chirilgan (1900). Feruzning o'zi *Pahlavon Mahmudning* 350 ruboiysini qo'lda ko'chirib, kitob holiga keltirgan. Feruz Shashmaqom kuylarini o'rgangan, saroyda maqom ansamblini tuzgan. “*Navo*”, “*Dugoh*”, “*Segoh*” maqomlariga bog'lab kuylar yaratgan. Feruz *Said Mahruyjon majmuasidagi* Sayid Mohi Ruyi Jahon maqbarasida dafn qilingan.

2023-11-05 19:13:44